Rahimova Leyli Selyarovna
Toshkent shahar yuridik texnikumi
Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

AYOLLAR VA BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek oilalaridagi ayollarga nisbatan zo'ravonlik muammosi muhokama qilinadi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik o'zi nima, qanday ko'rinishlari va turlari mavjud ekanligi haqida so'z boradi. Oilaviy zo'ravonlik qurboniga aylangan ayollar psixikasidagi o'zgarishlar yoritib beriladi. Bundan tashqari oilaviy zo'ravonlik keltirib chiqarishi mumkin bulgan oqibatlar va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Oilaviy zo'ravonlik, ayollar zo'ravonligi, bolalarga nisbatan zo'ravonlik, zo'ravon shaxs,xavf omillari ruhiy kamsitilish,

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik global muammo bo'lib, insoniyat uning haqiqiy ko'lamlari haqida qator sabablar tufayli aniq ma'lumotlarga ega emas. Eng avvalo, dunyoning ko'plab mamlakatlarida bu muammo yoki umuman ko'tarib chiqilmagan yoxud endigina gapira boshlanmoqda va oshkora muhokama qilinmoqda, biroq uning ko'lamlari to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik har qanday sharoitda yuz berishi mumkin bo'lsa-da, shuni bilishimiz kerakki, bola yoki o'spirinning zo'ravonlikka uchrashi ehtimolini oshiradigan ba'zi bir xavf omillari mavjud.

Masalan, to'rt yoshgacha bo'lgan bolalar va o'spirinlar yuqori xavf ostida. Xuddi shu narsa istalmagan, ota-onasining umidlarini qondirmaydigan, jismoniy yoki aqliy nogiron bo'lgan yoki ko'p yig'laydigan bolalar bilan ham sodir bo'ladi.Bolalari bilan aloqa o'rnatishda qiynalgan, bolaligida o'zlari zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan yoki o'z farzandlarining rivojlanishidan umidvor bo'lmagan ota-onalar, ularning o'rnini bosuvchilar yoki qonuniy vakillarning zo'ravonlik qilishlari xavfi yuqori.Mazkur muammoning bunday ulkan ko'lami sabablaridan biri ko'rsatilgan

jinoyatlarning jazosiz qolishidir. Chunki, xotin-qizlarning ko‘pchiligi zo‘ravonlikka indamasdan chidab keladi. Buning sababi - o‘z huquqlarini bilmaslik, sharmanda bo‘lishdan va jamiyat tomonidan qoralanishdan ko‘rqish. YAnada ko‘proq zo‘ravonlikka uchrashdan ko‘rquv, adolatga ishonmaslik, jamiyat tomonidan singdirilgan gender stereotiplar natijasida bunday jinoyatlar jazosiz qolmoqda. Zo‘ravonlikning jazolanmay qolishi esa yangi zo‘ravonliklarni keltirib chiqarmoqda.

Chet ellik psixolog-tadqiqotchilar favqulodda hayotiy hodisalar oqibatlarini o‘rganish doirasida yaqin paytlargacha ommaviy halokatlardan - urushlar, zilzilalar, millatlararo to‘qnashuvlardan aziyat chekkanlarga asosiy e’tibor qaratar edi.
ijtimoiy va psixologik masalalarni keltirib chiqarmoqda. Chet ellik olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, eng shafqatsiz zo‘ravonliklardan biri - jinsiy zo‘ravonlikdir .Jinsiy zo‘ravonlik va uning oqibatlari muammosi bir necha asrlar davomida mavjud bo‘lsa- da, fan tomonidan yaqindan boshlab, XX asrning 70-yillarida - AQSHda, so‘ngra Yevropada, 90-yillardan MDHning ayrim mamlakatlarida o‘rganilmoqda. Bugungi kunda zo‘ravonlikning ayollar va bolalar salomatligiga ko‘rsatadigan ta’siri va oqibatlari to‘g‘risida jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda va dissertatsiyalar yozilmoqda. Jumladan, bizni O.A.Kravsova tomonidan jinsiy zo‘ravonlikning oqibatlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari qiziqtirib qoldi. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, jinsiy zo‘ravonlik ko‘p hollarda intensiv ruhiy muammolarni keltirib chiqaruvchi jarohatlovchi hayotiy voqeadir. Jinsiy zo‘ravonlik - kuchli stress uyg‘otuvchi bo‘lib, jabrlanganlarning aksariyatida og‘ir asoratlarni keltirib chiqaradi: turli qo‘rquvlar, g‘azab, depressiya, o‘ziga past baho berish, turli psixosomatik cheklanishlar. Yolg‘izlik, begonalik va ruhiy tushkunlik, kelajakka va hayotga ishonmaslik, nazoratning yo‘qolishi, o‘ziga ishonchning yo‘qolishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning qiyinlashishi muammolari kelib chiqadi. Ruhiy tusdagi jinsiy buzilishlar yuzaga kelib, uzoq davom etishi mumkin. Hatto zo‘rlashga urinish ham turli psixologik muammolarni keltirib

chiqaradi.

Omillarning o‘zaro ta’siri va zo‘rlash sabablarining turlichaligi vaziyatga va qurbonlarning harakatlariga nisbatan ko‘p sonli uydirmalarni keltirib chiqaradi va ko‘pincha jabrlanuvchi tomonidan o‘z vaqtida va to‘g‘ri yordam olishni qiyinlashtirib, unga to‘sqinlik qiladi. Shunisi ahamiyatliki, salbiy qarashlarga ko‘pincha oila a’zolari ham qo‘shiladi, vaholanki, bunday vaziyatga uchragan ayollar yaqinlarining yordamiga ayniqsa muhtoj bo‘ladilar. Ma’lumki, jinsiy zo‘ravonlikning ko‘p hollari shu sababli yashirin qoladiki, jabralanuvchilar sodir bo‘lgan voqea haqida oil**a a’zolariga ham, huquq-tartibot organlariga ham gapirishni xohlamaydilar, CHunki bunday qurbonlar tegishli yordam o‘rniga faqat qoralanish va tushunmaslikka uchrashdan, zo‘ravon esa jazosiz qolishidan cho‘chiydilar.**

Bugungi kunda ko‘p sonli xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari natijasida gender zo‘ravonlik bilan voyaga etmagan qizlar o‘rtasida homiladorlik hollarining ko‘payishi, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarning ko‘payishi, jumladan, OITS - OIV, chaqaloqlar va o‘smirlar o‘limi, onalar va bolalar o‘limining yuqoriligi muammolari o‘rtasida bog‘lanish borligi ayon bo‘ldi.

Barcha hollarda gender zo‘ravonlik tushkunliklarga, iztiroblarga, oilalarning buzilishiga, uzoq muddatli ruhiy tanazzulga va pirovard natijada - butun jamiyat uchun ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Uydagi zo‘ravonlik qurbonlari salomatligi uchun salbiy oqibatlarni kamaytirish bo‘yicha jamiyatning iqtisodiy sarflari, masalan, sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlari (kasallik varaqalari, tibbiy xizmatlar qiymati) nihoyatda katta. Zo‘ravonlik oqibatlari jismoniy va ma’naviy bo‘lib, ayni paytda qurbonlarning iqtisodiy va psixilogik-sotsiologik imkoniyatlarini pasaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pulatova Sh.A, Murodov A.Sh Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish: Uslubiy qo‘llanma. –T.,Baktria press, 2020. –56 B.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // URL: http://www.lex.uz

WORDLY
KNOWLEDGE